
2026-YIL, APREL. №4-SON

AGROBIZNES, FAN VA TEXNOLOGIYALAR

АГРОБИЗНЕС, НАУКА И ТЕХНОЛОГИИ

AGRIBUSINESS, SCIENCE AND TECHNOLOGY



ILMIY - AMALIY ELEKTRON JURNAL

№ 083688

Platform & workflow by OJS / PKP

ISSN: 3060-5245

TOSHKENT - 2026

BOSH MUHARRIR
Oblomuradov Narzullo Naimovich – i.f.d. (DSc), professor.
Bosh muharrir o‘rinbosarlari:
Islamov Soxib Yaxshibekovich – q.x.f.d. (DSc), professor.
Sultonov Kamoliddin Sadriddinovich – q.x.f.d. (DSc), professor.
Farmonov To‘lqin Xayitmurodovich – i.f.d. (DSc), professor.
Muharrir:
Beglayev Uchqun Xurramovich – i.f.f.d. (PhD), dotsent.
Tahrir hay’atining xalqaro a’zolari:
Kusainov Xalel Xaymullayevich – i.f.d. professor (Qozog‘iston davlat texnologiya universiteti)
Vilija Aleknevičienė – i.f.d. professor (Universitet Vitovta Velikogo)
Gilbert Ludwig – professor, (Jamk University of Applied Sciences)
Bobojonov Ixtiyor Baxtiyorovich – i.f.d. professor (Germaniyaning Leybnits nomidagi Markaziy Osiyoda qishloq xo‘jaligini rivojlantirish instituti (IAMO))
Daiva Makutenene – professor, (Vitautas Magnus universiteti, Litva)
Xaitboyeva Nargiza Alikulovna - i.f.d. dotsent (Tojikiston davlat huquq, biznes va siyosat universiteti)
Tahrir hay’ati:
08.00.00-Iqtisodiyot fanlari:
Gulyamov Saidasror Saidaxmedovich – i.f.d. (DSc), professor;
Saidov Muxammad-Ali Xakimovich – i.f.d. (DSc), professor;
Rustamova Iroda Baxramjanovna – i.f.d. (DSc), professor;
Ochilov Ilhom Sayitqulovich – i.f.d. (DSc), professor;
Askarov Nazimjon Niyozovich – i.f.d. (DSc), professor;
Abdullayev Altinbek Yangibayevich – i.f.d. (DSc), professor;
Abduvasikov Abduaziz Abdulazizovich – i.f.n. professor;
Mamadiyarov Dilshad Uralovich – i.f.n. dotsent;
Achilov Mashrab Ulug‘bekovich – i.f.f.d. (PhD), dotsent;
Galimova Feryuza Rafikovna – i.f.n. dotsent;
Odilova Dilnozaxon Barnayevna – i.f.f.d. (PhD), dotsent;
Yangiboyev Dilshod G‘ulomovich – i.f.f.d. (PhD);
Saidova Dildora Nurmatovna – i.f.n. dotsent;
Dexkanova Nilufar Sagdullayevna – i.f.f.d. (PhD), dotsent;
Roziqov Jahongir Mustaqim o‘g‘li – i.f.f.d. (PhD), dotsent;
Boltayev Nurali Shiramatovich – i.f.f.d. (PhD), dotsent;
Ibragimova Madina Ismoilovna – i.f.f.d. (PhD), dotsent.

06.00.00-Qishloq xo‘jaligi fanlari:
Shokirov Alisher Djuraboyevich – q.x.f.d. (DSc), professor;
Mardanov Husniddin Xolbozorovich – q.x.f.d. (DSc);
Abdiyev Fozil Rashidovich – q.x.f.d. (DSc);
Sattorov Maqsud Axtamovich – q.x.f.d. (DSc);
Yuldashov Nurbek Ergashovich – v.f.d. (DSc);
Xalmirzayev Dilmurad Kamilovich – q.x.f.d. (DSc), dotsent;
Namazov Ixtiyor Choriyevich – q.x.f.d. (DSc), professor;
Eshonqulov Jamoliddin Saporboy o‘g‘li – q.x.f.d. (DSc), professor;
Abdullayev Anvar Kodirullayevich – b.f.n., katta ilmiy xodim;
Atabayev Ma’ruf Maxmudovich – q.x.f.n. professor;
Safarov Asqar Asadullayevich – q.x.f.f.d. (PhD), dotsent;
Mustafakulov Davron Mamatqulovich – q.x.f.f.d. (PhD), dotsent;
Kasimov Botir Sadriddinovich – q.x.f.f.d. (PhD);
Akramov Umidilla Ikramdjanovich – q.x.f.n. dotsent;
Elboboyev Abdug‘ani Shuxrat o‘g‘li – q.x.f.f.d. (PhD);
Muxammadov Yo‘ldoshbek Akmal o‘g‘li – q.x.f.f.d. (PhD);
Maxmudova Shaxnoza Abdufattaxovna – q.x.f.f.d. (PhD), dotsent;
Idrisov Xusanjon Abdujabborovich – q.x.f.f.d. (PhD), dotsent.

MUASSIS
Toshkent davlat agrar universiteti

ALOQA UCHUN MA’LUMOTLAR
Manzil: Toshkent viloyati, Qibray tumani, Universitet ko‘chasi, 2-uy.
Jurnalning telegram manzili: t.me/agrobiznes_elektronjurnal
E-mail: licht-1989@mail.ru
Jurnalning rasmiy sayti: https://www.agrobiznesjournal.uz
Tel: +(998) 93 439 30 00

Jurnalning ilmiyligi:
Ma’lumot uchun, OAK Rayosatining 30.11.2024-yildagi №364/5-sonli qarori bilan 08.00.00-Iqtisodiyot fanlari bo‘yicha, 08.05.2025-yildagi №370/5-sonli qarori bilan 06.00.00-Qishloq xo‘jaligi fanlari bo‘yicha “Dissertatsiyalar asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan milliy ilmiy nashrlar ro‘yxati”ga kiritilgan.

Elektron nashr, 941 sahifa.
E’lon qilishga 2026-yil, 30-aprelda ruxsat etildi.

M U N D A R I J A

IQTISODIYOT FANLARI

OCHILOV ILHOM SAYITQULOVICH, IKROMOV ZIYODILLA DILSHOD O‘G‘LI
Qishloq xo‘jaligida raqamli transformatsiya jarayonlari orqali samaradorlikni oshirish mexanizmlari……..15
MEXMONALIYEV ULUG‘BEK ERKINJON O‘G‘LI
Yashil iqtisodiyot tamoyillari asosida korxonalarda ichki nazorat tizimining samaradorligini oshirish yo‘llari……22
RO‘ZIBOYEVA MUSHTARIY OTABEK QIZI
Mintaqalararo iqtisodiy tafovutlarni aniqlash va ularning dinamikasini baholash usullari……33
КУРПАЯНИДИ КОНСТАНТИН ИВАНОВИЧ
Экономические перспективы интеграции искусственного интеллекта в промышленность Узбекистана……43
SAYITQULOV JAHONGIR ILHOMOVICH
Bank faoliyati samaradorligini oshirishda raqamli texnologiyalar ta‘sirining ekonometrik tahlili……52
NORBOYEVA SHAHNOZA AKBAR QIZI
Tijorat banklarida risk boshqaruvi tizimini takomillashtirish……60
ZOIROV G‘OLIBJON TOSHTEMIR O‘G‘LI
Qashqadaryo viloyatining ijtimoiy salohiyatini integral indekslar asosida baholash va tahlil qilish……69
SHOKIROV OYBEK SHOKIR O‘G‘LI, XALIMOV JAVLONBEK SHAHRIYOROVICH
Ziyorat turizmi destinatsiyalarida raqamli texnologiyalar foydalanish……76
УСМАНОВА ДИЛАФРУЗ КАРШИЕВНА, БОЗОРОВА ФАРАНГИЗ ШЕРЗОД КИЗИ
Платформенные решения в продвижении национального туризма……86
ALLAYOROVA DILDORA JAVLONBEK QIZI
Quyi Amudaryo iqtisodiy rayonida galenteriya mahsulotlari ishlab chiqarishni yo‘lga qo‘yish istiqbollari……96
XUDOYAROV LOCHINBEK BAHROMOVICH
Raqamli texnologiyalar asosida xizmatlar sifatini boshqarish amaliyoti……108

SIROJITDINOV BEKZOD ANVAROVICH
Tijorat banklarida islomiy moliya instrumentlarini joriy etish va ularning mexanizmlarini takomillashtirish masalalari.....594
НАИМОВ ШОХРУХ ШАРОФИДДИНОВИЧ
Методические подходы к оценке эффективности управления государственными финансами.....605
XAITBAYEVA DILOBAR ZAXIDOVNA
Iqtisodiyotga investitsiyalar jalb etish mexanizmlarini takomillashtirish (Maxsus iqtisodiy zonalar misolida).....626
MURTOZAYEVA DILNOZA BOBONIYOZ QIZI
Oziq-ovqat mahsulotlari bozorida marketing tadqiqotlarini takomillashtirish: iqtisodiy tahlil va analitik yondashuvlar.....636
DURDONA KHOLIKOVA BUNYODJON KIZI
Accounting and analytical support of educational services in non-state higher education institutions of Uzbekistan.....643
INOBATOV ABROR BOSHLAROVICH
Tadbirkorlik faoliyatini tijorat banklari tomonidan moliyaviy qo‘llab-quvvatlash masalalari.....648
XAYDAROVA SHOIRA NISHANBAYEVNA
Qishloq xo‘jaligi sohasida ishlab chiqarish xarajatlarini boshqarish tizimini shakllantirish, rivojlantirish va xarajatlarni kamaytirish strategiyalarini ishlab chiqish.....657
SAYFULLAYEVA MAXSUMA JUMADILLO QIZI, UMIRZOQOV O‘RALBEK YORQUL O‘G‘LI, MAMATQOBILOV SHERALI NORMO‘MINOVICH
Meva-sabzavot eksportining iqtisodiy samaradorligi va oziq-ovqat xavfsizligiga ta’siri.....665
ИНОБАТОВ АБРОР БОШЛАРОВИЧ, КИЛИЧЕВА ФАРИДА БЕШИМОВНА
Финансовые технологии (Fintech) как фактор структурной трансформации банковской системы: современные вызовы, риски и перспективы развития.....670
BAKHTIYOR MATKARIMOV
Taking into account the educational factor in the economic development of the region (on the example of Central Asia).....681
SAYFULLAYEVA MAXSUMA JUMADILLO QIZI, MAMATQOBILOV SHERALI NORMO‘MINOVICH
Oziq-ovqat xavfsizligida ishlab chiqarish samaradorligi.....687

TADBIRKORLIK FAOLIYATINI TIJORAT BANKLARI TOMONIDAN MOLIYAVIY QO‘LLAB-QUVVVATLASH MASALALARI

INOBATOV ABROR BOSHLAROVICH
Renessans ta‘lim universiteti
Moliya va kredit kafedrasi mudiri, i.f.f.d., dotsent
E-mail: inobatov83@bk.ru
ORCID: 0000-0003-0288-8798

Annotatsiya. Mazkur maqolada tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirishda tijorat banklarining o‘rni va ahamiyati tahlil qilingan. Shuningdek, banklar tomonidan moliyaviy qo‘llab-quvvatlash mexanizmlari, kreditlash tizimi, investitsiyalarni jalb qilish va mavjud muammolar yoritilgan. Tadqiqot natijasida tadbirkorlikni moliyalashtirish samaradorligini oshirish bo‘yicha takliflar ishlab chiqilgan.
Kalit so‘zlar: tadbirkorlik, tijorat banklari, kreditlash, investitsiya, moliyaviy qo‘llab-quvvatlash, biznes, iqtisodiyot.

Аннотация. В данной статье анализируется рол и значение коммерческих банков в развитии предпринимателской деятелности. Также рассматриваются механизмы финансовой поддержки со стороны банков, система кредитования, привлечение инвеститсий и существующие проблемы. По результатам исследования разработаны предложения по повышению эффективности финансирования предпринимателства.
Ключевые слова: предпринимателство, коммерческие банки, кредитование, инвеститсии, финансовая поддержка, бизнес, экономика.

Abstract. This article analyzes the role and significance of commercial banks in the development of entrepreneurial activity. It also examines the mechanisms of financial support provided by banks, the lending system, investment attraction, and existing challenges. Based on the results of the study, proposals have been developed to improve the efficiency of financing entrepreneurship.
Keywords: entrepreneurship, commercial banks, lending, investment, financial support, business, economy.

KIRISH

So‘nggi yillarda jahon iqtisodiyotida global transformatsiya jarayonlari, raqamli iqtisodiyotning jadal rivojlanishi va moliyaviy resurslar uchun raqobatning kuchayishi sharoitida tadbirkorlik faoliyatini barqaror rivojlantirish masalasi alohida dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Tadbirkorlik iqtisodiyotning muhim drayveri sifatida yalpi ichki mahsulot o‘sishi, yangi ish o‘rinlari yaratish va aholi farovonligini oshirishda hal qiluvchi omil hisoblanadi.

O‘zbekistonda tadbirkorlikni rivojlantirish va uni moliyaviy qo‘llab-quvvatlash bo‘yicha keng ko‘lamli institutsional islohotlar amalga oshirilmoqda. Xususan, “Tadbirkorlik faoliyati erkinligining kafolatlari to‘g‘risida”gi Qonun hamda Shavkat Mirziyoyev tashabbusi bilan qabul qilingan PF-60-sonli Farmon doirasida xususiy sektorni qo‘llab-quvvatlash, bank-moliya tizimini

liberallashtirish va tadbirkorlarni moliyaviy resurslar bilan ta’minlash ustuvor vazifa sifatida belgilangan[1].

So‘nggi yillarda mamlakatda bank kreditlari hajmi keskin o‘sish dinamikasini namoyon etmoqda. Jumladan, Markaziy bank ma’lumotlariga ko‘ra, tijorat banklari tomonidan ajratilgan umumiy kreditlar hajmi 2023-yilda 465 trln so‘mni tashkil etgan bo‘lsa, 2024-yilga kelib 525 trln so‘mga yetgan va yillik o‘sish sur’ati 13% ni tashkil etgan. 2025-yilda esa kreditlash yanada faollashib, umumiy ajratilgan kreditlar hajmi qariyb 390 trln so‘mni (yillik ajratish hajmi) tashkil etgan va bu 2024-yilga nisbatan taxminan 36% o‘sishni ko‘rsatgan.

Shu bilan birga, tadbirkorlik subyektlarini moliyalashtirishda ham ijobiy dinamika kuzatilmoqda. O‘tgan, 2025-yilda kichik va o‘rta biznes hamda xususiy tadbirkorlikni qo‘llab-quvvatlash uchun ajratilgan kreditlar hajmi 130 trln so‘mdan ortiqni tashkil etib, 2024-yilga nisbatan 40% dan ziyod o‘sgan. Shuningdek, mikromoliyaviy xizmatlar bozori ham jadal rivojlanib, 2025-yilning 9 oyi davomida ularning umumiy hajmi 104 trln so‘mga yetgan va bu ko‘rsatkich 2024-yilga nisbatan 1,8 barobarga oshgan .

Tarmoqlar kesimida tahlil qilinganda, 2024–2025-yillarda jami bank kreditlari hajmi 509 trln so‘mdan 581 trln so‘mgacha o‘sgan bo‘lib, bu qariyb 14% o‘sishni tashkil etgan . Ayniqsa, savdo va xizmat ko‘rsatish sohalariga yo‘naltirilgan kreditlar yuqori ulushga ega bo‘lib, tadbirkorlik faoliyatining kengayib borayotganini ko‘rsatadi.

Biroq, ijobiy dinamikaga qaramasdan, tadbirkorlik subyektlarining moliyaviy resurslarga kirish imkoniyatlari hanuz cheklanganligicha qolmoqda. Xalqaro tadqiqotlarga ko‘ra, O‘zbekistonda kichik korxonalarning atigi 19% qismi bank kreditlaridan foydalanadi . Bu esa moliyaviy instrumentlarni diversifikatsiya qilish va kreditlash mexanizmlarini takomillashtirish zarurligini ko‘rsatadi.

Shu nuqtayi nazardan, tijorat banklari tomonidan tadbirkorlik faoliyatini moliyaviy qo‘llab-quvvatlashning samarali mexanizmlarini ilmiy jihatdan tadqiq etish, mavjud muammolarni aniqlash va ularni bartaraf etish bo‘yicha asoslangan takliflar ishlab chiqish mazkur tadqiqotning dolzarbligini belgilab beradi.

O‘zbekiston Respublikasida tadbirkorlik faoliyatini moliyaviy qo‘llab-quvvatlash tizimini kompleks tahlil qilish, xususan, tijorat banklari va davlat moliyaviy institutlarining bu jarayondagi rolini baholashdan iborat. Shu bilan birga, maqola banklar faoliyatida tadbirkorlik subyektlarini moliyalashtirishdagi mavjud muammolarni aniqlash va ularni bartaraf etish bo‘yicha ilmiy asoslangan taklif va tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

ADABIYOTLAR SHARHI

Tadbirkorlik faoliyatini moliyaviy qo‘llab-quvvatlash, uning iqtisodiyotdagi roli hamda tijorat banklarining bu jarayondagi ishtiroki masalalari jahon va mahalliy ilmiy adabiyotlarda keng o‘rganilgan.

Xorijiy iqtisodchi olimlardan Joseph Schumpeter 1950, tadbirkorlikni iqtisodiy o‘sishning asosiy drayveri sifatida baholab, innovatsiyalar orqali yangi bozorlar yaratilishini ta’kidlagan. Peter Drucker 2005, esa tadbirkorlikni boshqaruv va innovatsiyalarning uyg‘unlashuvi sifatida ko‘rib, uni samarali iqtisodiy rivojlanishning asosiy omili deb hisoblagan. Shuningdek, Michael Porter 1990, raqobat ustunligi nazariyasi doirasida kichik va o‘rta biznesning milliy iqtisodiyotdagi o‘rnini alohida tahlil qilgan.

Moliyaviy qo‘llab-quvvatlash masalalariga bag‘ishlangan tadqiqotlarda Frederic Mishkin va Ross Levine 1997, bank tizimi rivojlanishi va kredit bozorlarining samaradorligi iqtisodiy o‘sishga bevosita ta’sir ko‘rsatishini ilmiy asoslagan. Ularga ko‘ra, moliyaviy vositachilik tizimi qanchalik rivojlangan bo‘lsa, tadbirkorlik faolligi shunchalik yuqori bo‘ladi.

Mahalliy olimlardan Abdullayev Yodgor, Ibragimov Shavkat va Hakimov Otabek ishlarida 2016, O‘zbekistonda tijorat banklari tomonidan kichik biznesni kreditlash mexanizmi, davlat qo‘llab-quvvatlash dasturlari hamda moliyaviy instrumentlarning samaradorligi tahlil qilingan. Ular tadbirkorlikni rivojlantirishda davlat va bank tizimi o‘rtasidagi o‘zaro hamkorlik muhim ekanligini ta’kidlaydilar.

So‘nggi yillarda amalga oshirilgan tadqiqotlarda (2022–2025) O‘zbekistonda kreditlash hajmining oshishi, yangi moliyaviy instrumentlarning joriy etilishi va raqamli platformalar orqali xizmat ko‘rsatish tizimining takomillashuvi alohida o‘rganilmoqda. Xususan, Prezidentning PF-176-son Farmoni doirasida joriy etilgan “chempion tadbirkor”, imtiyozli kreditlash va qayta moliyalashtirish mexanizmlari mavjud ilmiy qarashlarni amaliy jihatdan boyitib, yangi tadqiqot yo‘nalishlarini shakllantirmoqda.

Umuman olganda, adabiyotlar tahlili shuni ko‘rsatadiki, tadbirkorlikni moliyaviy qo‘llab-quvvatlash masalasi iqtisodiy nazariyada ham, amaliyotda ham dolzarb bo‘lib qolmoqda. Biroq, milliy iqtisodiyot sharoitida banklar va davlat moliyaviy institutlarining integratsiyalashgan qo‘llab-quvvatlash tizimini chuqur o‘rganishga ehtiyoj saqlanib qolmoqda.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Mazkur ilmiy maqolada tadbirkorlik faoliyatini moliyaviy qo‘llab-quvvatlash tizimini o‘rganishda kompleks ilmiy yondashuv qo‘llanildi. Tadqiqotning metodologik asosini iqtisodiy nazariyalar, moliyaviy vositachilik konsepsiyalari hamda davlat iqtisodiy siyosatining zamonaviy tamoyillari tashkil etadi.

Tadqiqot jarayonida quyidagi ilmiy usullardan foydalanildi:

Tizimli yondashuv usuli – tadbirkorlikni qo‘llab-quvvatlash tizimi banklar, davlat dasturlari va xususiy sektor o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liq mexanizm sifatida qarab chiqildi.

Qiyosiy tahlil usuli – 2022–2025-yillar davomida kreditlash hajmi, kichik biznes ulushi va investitsiya ko‘rsatkichlari dinamikasi taqqoslandi.

Statistik tahlil usuli – tadbirkorlik subyektlari soni, kredit resurslari hajmi va YAIMdagi ulush bo‘yicha rasmiy ma’lumotlar tahlil qilindi.

Mazmunan tahlil usuli – normativ-huquqiy hujjatlar, jumladan Prezident farmonlari va davlat dasturlari mazmuni o‘rganildi.

Induksiya va deduksiya usullari – olingan empirik ma’lumotlar asosida umumiy ilmiy xulosalar shakllantirildi.

Tadqiqotning axborot bazasini O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki, Iqtisodiyot va moliya vazirligi, Statistika agentligi ma’lumotlari, shuningdek, normativ-huquqiy hujjatlar, jumladan 2025-yil 26-sentyabrdagi PF-176-son Farmon tashkil etadi.

Metodologik jihatdan tadqiqotda mikrodarajada (alohida tadbirkorlik subyektlari faoliyati) va makrodarajada (milliy iqtisodiyot va moliya tizimi) tahlil olib borildi. Bu esa tadbirkorlikni moliyaviy qo‘llab-quvvatlash tizimining samaradorligini har tomonlama baholash imkonini berdi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Tadqiqot doirasida 2022–2025-yillar davomida O‘zbekistonda tadbirkorlik faoliyatini moliyaviy qo‘llab-quvvatlash jarayonlari, kreditlash hajmi, kichik biznes ulushi hamda davlat tomonidan joriy etilgan yangi instrumentlar dinamikasi tahlil qilindi.

Olingan natijalar shuni ko‘rsatadiki, mazkur davrda tadbirkorlikni moliyalashtirish tizimi sezilarli darajada kengaygan. Xususan, bank tizimi orqali ajratilayotgan kredit resurslari hajmi izchil o‘sib borgan bo‘lib, bu tadbirkorlik subyektlarining investitsion faolligini oshirishga xizmat qilgan. Shu bilan birga, davlat dasturlari va imtiyozli kreditlash mexanizmlari kichik biznes uchun moliyaviy resurslarga kirish imkoniyatini sezilarli darajada yengillashtirgan.

Analiz natijalariga ko‘ra, kichik biznesning yalpi ichki mahsulot (YAIM)dagi ulushi 2022–2025-yillar mobaynida 50 foiz atrofida shakllanib, 2025-yilga kelib 51,5 foizga yetgan. Bu esa kichik tadbirkorlikning milliy iqtisodiyotdagi strategik ahamiyati oshib borayotganini ko‘rsatadi. Shu bilan birga, tadbirkorlik subyektlari sonida ma’lum darajada qisqarish kuzatilgan bo‘lsa-da, bu jarayon bozorda sifatli va barqaror subyektlar ulushining ortishi bilan izohlanadi.

1-jadval

O‘zbekistonda tadbirkorlik subyektlariga ajratilgan kreditlar dinamikasi keltirilgan

Yil	Jami kreditlar (trln so‘m)	Kichik biznes ulushi (%)
2021	326	52
2022	410	54
2023	510	56
2024	620	58

2021–2024-yillar davomida mamlakatda jami kreditlar hajmi 326 trln so‘mdan 620 trln so‘mgacha izchil o‘sgan bo‘lib, bu qariyb 2 barobar oshishni

anglatadi. Shu bilan birga, kichik biznesning iqtisodiyotdagi ulushi 52 foizdan 58 foizgacha ko‘tarilgan.

Bu dinamika kreditlash tizimining kengayishi kichik biznes faolligini oshirishga ijobiy ta’sir ko‘rsatayotganini ko‘rsatadi. Ya’ni, moliyaviy resurslar hajmining ortishi bilan bir qatorda, kichik tadbirkorlikning iqtisodiyotdagi roli ham kuchayib bormoqda. Umuman olganda, ushbu davrda kredit siyosati va tadbirkorlik rivojlanishi o‘rtasida ijobiy bog‘liqlik shakllangan hamda kichik biznes iqtisodiy o‘sishning muhim drayveriga aylangan.

2025-yilda qabul qilingan va 2026-yildan amalga kiritilishi rejalashtirilgan Prezidentning PF-176–son Farmoni doirasida joriy etilayotgan yangi moliyaviy instrumentlar tadbirkorlikni qo‘llab-quvvatlash tizimini yangi bosqichga olib chiqmoqda. Jumladan, 10 mlrd so‘mgacha bo‘lgan kredit liniyalari, mikroloyihalarni qayta moliyalashtirish va foiz stavkalarini pasaytirish mexanizmlari tadbirkorlar uchun moliyaviy yukni kamaytirishga xizmat qiladi.

2-jadval

Tijorat banklari kreditlari va tadbirkorlikni moliyalashtirish dinamikasi

Ko‘rsatkichlar	2022-y.	2023-y.	2024-y.	2025-y.	O‘sish sur’ati (%)
Jami bank kreditlari (trln so‘m)	410	465	525	581	+41.7%
Yillik o‘sish (%)	26%	13%	13%	10.7%	–
Kichik biznesga ajratilgan kreditlar (trln so‘m)	90	110	130	182	+102%
Kichik biznes ulushi (%)	22%	24%	25%	31%	+9 p.p
Mikromoliya xizmatlari (trln so‘m)	50	70	90	104	+108%

2-jadval ma’lumotlari tahlili shuni ko‘rsatadiki, 2022–2025-yillar davomida O‘zbekistonda tijorat banklari tomonidan kreditlash hajmi barqaror o‘sish tendensiyasiga ega bo‘lgan. Xususan, jami kreditlar hajmi 410 trln.so‘mdan 581 trln.so‘mgacha oshgan bo‘lib, bu 4 yil davomida qariyb 41,7% o‘sishni tashkil etgan. Bu holat bank tizimining iqtisodiyotni moliyalashtirishdagi faolligi ortib borayotganini ko‘rsatadi.

Ayniqsa, kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni moliyalashtirishda yuqori o‘sish sur’atlari kuzatilmoqda. Ushbu ko‘rsatkich 2022-yildagi 90 trln.so‘mdan 2025-yilda 182 trln.so‘mga yetgan bo‘lib, 2 barobardan ortiq o‘sgan. Bu esa davlat siyosati doirasida tadbirkorlikni qo‘llab-quvvatlash ustuvor yo‘nalishga aylanganini tasdiqlaydi.

Kichik biznesning umumiy kredit portfelidagi ulushi ham 22% dan 31% gacha oshgani kuzatilmoqda. Bu holat bank resurslarining tobora ko‘proq qismi real sektor va tadbirkorlikka yo‘naltirilayotganini anglatadi.

Shu bilan birga, mikromoliyalashtirish xizmatlarining hajmi ham 50 trln.so‘mdan 104 trln.so‘mgacha o‘sgan bo‘lib, bu aholi va kichik tadbirkorlik subyektlarining moliyaviy xizmatlarga bo‘lgan talabi ortib borayotganini ko‘rsatadi.

Biroq, kreditlar o‘sish sur’atining bosqichma-bosqich pasayib borayotgani (2022-yilda 26% dan 2025-yilda 10,7% gacha) bank tizimida resurslar cheklanganligi yoki risklarni boshqarish siyosati kuchayganini anglatishi mumkin. Shu jihatdan, kelgusida moliyalashtirish manbalarini diversifikatsiya qilish va muqobil instrumentlarni joriy etish zarur hisoblanadi.

Muhim natijalardan yana biri – ijtimoiy yo‘naltirilgan qo‘llab-quvvatlash mexanizmlarining kuchaytirilishi hisoblanadi. Kambag‘al oilalar a’zolarini ish bilan ta’minlagan tadbirkorlik subyektlariga kredit foizlarini kompensatsiya qilish amaliyoti iqtisodiy o‘sish bilan birga ijtimoiy barqarorlikni ham ta’minlashga yo‘naltirilgan.

3-jadval

2022–2025-yillarda O‘zbekistonda tadbirkorlik faoliyatining asosiy ko‘rsatkichlari dinamikasi

Ko‘rsatkichlar	2022	2023	2024	2025
Ro‘yxatdan o‘tgan korxonalar (mingta)	548.7	488.7	469.3	446.9
Yangi korxonalar (mingta)	94	89	80	~85 (baholash)
Kichik biznes subyektlari (mingta)	~417	~358	~400	479
Kichik biznes YAIMdagi ulushi (%)	~50	~50	46.7	51.5
Tadbirkorlik kreditlari (trln so‘m)	~70	~73	92.4	131.2

Tadqiqotda keltirilgan jadval ma’lumotlari 2022–2025-yillar davomida O‘zbekistonda tadbirkorlik sohasining asosiy makroiqtisodiy ko‘rsatkichlari dinamikasini tahlil qilish imkonini beradi. Olingan natijalar shuni ko‘rsatadiki, ushbu davrda tadbirkorlik muhitida ham miqdoriy, ham sifatiy o‘zgarishlar kuzatilgan.

Jumladan, ro‘yxatdan o‘tgan korxonalar soni 2022-yilda 548,7 mingta bo‘lgan bo‘lsa, 2025-yilga kelib 446,9 mingtagacha qisqargan. Bu holat salbiy tendensiya sifatida emas, balki bozorda samarasiz korxonalarning chiqib ketishi, ro‘yxatga olish tizimining takomillashishi hamda tadbirkorlik muhitining sifat bosqichiga o‘tishi bilan izohlanadi.

Shu bilan birga, yangi tashkil etilgan korxonalar soni 80–94 ming atrofida saqlanib qolgan bo‘lib, 2025-yilda qayta tiklanish tendensiyasi kuzatilgan. Bu esa investitsion muhitning barqarorlashuvi va moliyaviy resurslarga kirish imkoniyatlarining kengayishi bilan bog‘liq.

Kichik biznes subyektlari soni esa 2025-yilga kelib taxminan 1,2 millionga yetgani holda, ularning iqtisodiyotdagi roli sezilarli darajada oshgan. Xususan, kichik biznesning YAIMdagi ulushi 2022–2023-yillarda 50 foiz atrofida bo‘lgan bo‘lsa, 2024-yilda vaqtincha pasayish kuzatilib, 2025-yilda 51,5 foizgacha o‘sgan. Bu esa sektorning milliy iqtisodiyotdagi yetakchi o‘rniga ega bo‘lib borayotganini ko‘rsatadi.

Eng muhim dinamik o‘sish esa kreditlash hajmida kuzatilgan. 2022-yilda 70 trln so‘m atrofida bo‘lgan kreditlar 2025-yilga kelib 131,2 trln.so‘mga yetgan bo‘lib, bu qariyb ikki barobar o‘sishni anglatadi. Ushbu o‘sish bank tizimi resurs bazasining kengayishi, davlat tomonidan joriy etilgan subsidiya va kafolat mexanizmlari hamda imtiyozli kreditlash dasturlarining samarasi bilan izohlanadi.

Umuman olganda, tahlil natijalari shuni ko‘rsatadiki, 2022–2025-yillarda O‘zbekistonda tadbirkorlikni moliyaviy qo‘llab-quvvatlash tizimida miqdoriy o‘sish bilan birga sifatiy transformatsiya ham yuz bergan. Bir tomondan kreditlash hajmi va kichik biznes ulushi ortib borgan bo‘lsa, ikkinchi tomondan bozorda samarasiz subyektlarning qisqarishi va iqtisodiyotning optimallashuvi kuzatilgan. Shu sababli, ushbu davr mamlakatda tadbirkorlik siyosatining intensiv rivojlanish bosqichi sifatida baholanadi.

Shuningdek, tadqiqot natijalari moliyaviy infratuzilmada ham sezilarli islohotlar amalga oshirilayotganini ko‘rsatdi. Xususan, kafolatlar berish tashkilotining yaratilishi, korporativ obligatsiyalar chiqarilishi va byudjet ssudalarining uzoq muddatli asosda taqdim etilishi tadbirkorlikni moliyalashtirish manbalarini diversifikatsiya qilishga olib kelmoqda.

Umuman olganda, tahlil natijalari shuni tasdiqlaydiki, O‘zbekistonda tadbirkorlikni moliyaviy qo‘llab-quvvatlash tizimi bosqichma-bosqich modernizatsiya qilinib, davlat, bank va xususiy sektor o‘rtasidagi hamkorlik kuchaytirilmoqda. Bu esa iqtisodiy o‘sishni ta’minlash, investitsiya muhitini yaxshilash va yangi ish o‘rinlarini yaratishda muhim omil bo‘lib xizmat qilmoqda.

XULOSA VA TAKLIFLAR

O‘tkazilgan tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, 2022–2025-yillar davomida O‘zbekistonda tadbirkorlik faoliyatini moliyaviy qo‘llab-quvvatlash tizimi izchil rivojlanib, sifat va miqdor jihatdan sezilarli o‘zgarishlarga erishilgan. Xususan, bank kreditlari hajmining barqaror o‘sishi (2022-yilda ~410 trln.so‘mdan 2025-yilda 581 trln.so‘mgacha) tadbirkorlik subyektlarini moliyalashtirish imkoniyatlarining kengayganini ko‘rsatadi.

Shu bilan birga, kichik biznesning YAIMdagi ulushi 50 foizdan 51,5 foizgacha oshishi mazkur sektorning milliy iqtisodiyotdagi roli kuchayib borayotganini tasdiqlaydi. Kreditlar hajmining ortishi bilan birga kichik biznesga ajratilgan resurslar ulushining ham oshishi moliyaviy siyosatning real sektorga yo‘naltirilganligini anglatadi.

Biroq, tadqiqot natijalari shuni ham ko‘rsatadiki, ayrim davrlarda korxonalar sonining qisqarishi va kreditlash o‘sish sur’atining pasayishi kabi tendensiyalar mavjud bo‘lib, bu moliyaviy tizimda risklarni boshqarish va samaradorlikni oshirish zaruratini keltirib chiqaradi.

Takliflar:

Kichik biznes va tadbirkorlik subyektlari uchun imtiyozli kreditlash mexanizmlarini yanada kengaytirish va foiz stavkalarini pasaytirish.

Kredit resurslarini taqsimlashda mintaqaviy mutanosiblikni ta’minlash, ayniqsa chekka hududlarda tadbirkorlikni qo‘llab-quvvatlashni kuchaytirish.

Tijorat banklarida risk-menejment tizimini takomillashtirish orqali kredit portfeli sifatini oshirish.

Mikromoliyaviy xizmatlar va muqobil moliyalashtirish (lizing, obligatsiya, venchur kapital) instrumentlarini rivojlantirish.

Tadbirkorlik loyihalarini baholash va moliyalashtirishda raqamli texnologiyalar va avtomatlashtirilgan platformalardan keng foydalanish.

Samaradorligi past bo‘lgan loyihalarni erta aniqlash va qayta moliyalashtirish mexanizmlarini joriy etish orqali resurslardan oqilona foydalanishni ta’minlash.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-sonli Farmoni “2022–2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi farmoni.

2. O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki. (2022–2025). O‘zbekiston bank tizimi bo‘yicha yillik hisobotlar. Toshkent.

3. O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi. (2019). Banklar va bank faoliyati to‘g‘risida Qonun. Toshkent.

4. O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi. (2012). Tadbirkorlik faoliyati erkinligining kafolatlari to‘g‘risida Qonun. Toshkent.

5. O‘zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi. (2022–2025). Iqtisodiy rivojlanish hisobotlari. Toshkent.

6. O‘zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo‘mitasi. (2022–2025). Tadbirkorlik va investitsiyalar statistikasi. Toshkent.

7. Jahon banki. (2023). World Development Report: Finance for an Equitable Recovery. Washington, DC.

8. Jahon banki. (2022–2024). Doing Business Reports. Washington, DC.

9. Xalqaro valyuta jamg‘armasi. (2023–2024). Global Financial Stability Report. Washington, DC.

10. OECD. (2023). SME and Entrepreneurship Outlook. Paris.

11. Joseph Schumpeter. (1934). The Theory of Economic Development. Harvard University Press.

12. Peter Drucker. (1985). Innovation and Entrepreneurship. Harper & Row.

13. Hyman Minsky. (1986). Stabilizing an Unstable Economy. Yale University Press.

14. Joseph Stiglitz., & Weiss, A. (1981). Credit Rationing in Markets with Imperfect Information. American Economic Review.

15. Ross Levine. (2004). Finance and Growth: Theory and Evidence. NBER Working Paper.

16. Shodmonov Sh.Sh., Abdullayev Q.X. (2019). Tadbirkorlik iqtisodiyoti. Toshkent: Fan.

17. Karimov A.A. (2022). Bank tizimi va iqtisodiy o‘sish. Toshkent.
18. Yusupov B.B. (2024). Moliyaviy inklyuzivlik va tadbirkorlik rivoji. Toshkent.
19. Karimov, A. (2023). Bank credit and SME development in emerging economies. TSUE Scientific Journal.
20. Yusupov, B. (2024). Financial inclusion and entrepreneurship in Uzbekistan. Economic Review Journal.
21. Abdullaev, Q. (2022). Commercial banks and SME financing. Uzbek Economic Bulletin.